

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.S.Turdiyev	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili	182
B.E.Xusanov	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari	187
F.M.O'sarov	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari	190
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	193
Sh.Sh.Dadaxanov	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlarini tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	201

SIYOSAT

J.Q.Yusubov	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi	206
B.Yalgashev	
“Siyosiy falsafa” va “Siyosat falsafasi” o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari.....	210
A.Xamdamirov	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati	214

TARIX

B.A.Usmonov	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar	219
A.H.Адигезалов	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гууам	224
F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni	231
A.H.Boltayev	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar	235
G'.R.Mirzayev	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi	239
O.N.Nasirov	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	249
O.I.Rajabov	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar	253
П.Х.Исмоилова	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в туркестане в конце XIX в начале XX века	257
H.S.Yusupov	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati	262
Sh.Y.Oxunjonova	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar).....	265
A.R.Nurmatov, D.X.Boyyeddayev	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim.....	272
П.Х.Исмоилова	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках.....	276
G.X.Xasanboyeva	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillar).....	281

AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA UNDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEZONLARI**ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМИРОВАННОГО ОБЩЕСТВА И КРИТЕРИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ****FORMATION OF AN INFORMED SOCIETY AND CRITERIA FOR ENSURING PUBLIC SAFETY****O'sarov Farrux Madaminovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Maqolada axborot, axborotlashgan jamiyat tushunchasining evolyutsiyasi, kelib chiqish sabablari, mazmun-mohiyati haqida gap boradi. Shuningdek, ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat tushunchasining kelib chiqishiga tegishli bo'lgan ijtimoiy-falsafiy va jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье говорится об эволюции понятия информация, информационное общество, его истоках и сущности. Также в данной статье анализируются социально-философские и критерии общественной безопасности, связанные с возникновением понятия информационного общества.

Abstract

The article talks about the evolution of the concept of information, information society, its origins, and its essence. Also, this article analyzes the socio-philosophical and public security criteria related to the origin of the concept of information society.

Kalit so'zlar: axborotlashuv, axborotlashgan jamiyat, integratsiya, globalizatsiya, internet, kompyuter, elektronika, kibernetika, ijtimoiy, falsafiy.

Ключевые слова: информация, информационное общество, интеграция, глобализация, интернет, компьютер, электроника, кибернетика, социальный, философский.

Key words: information, information society, integration, globalization, internet, computer, electronics, cybernetics, social, philosophical.

KIRISH

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasidagi taraqqiyot barchaning hayot tarzini o'zgartirmoqda: qanday ishlash va biznes qilish, farzandlarga qanday ta'lim berish, o'qib-o'rganish va tadqiqot qilish, qanday zavq olish-bularning barchasi zamonaviy axborot texnologiyalari ta'sirida o'zgarmoqda. "Axborotlashgan jamiyat" nafaqat odamlarning o'zaro munosabatlariga ta'sir qilmoqda, balki an'anaviy tashkiliy tuzilmalarni yanada moslashuvchan va markazlashtirilgan bo'lishini talab qilmoqda.

"Axborotlashgan jamiyat"-bu zamonaviy xalqlar jamiyatlarida, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyin axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va keng qo'llanilishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va madaniy o'zgarishlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan keng atama. "Axborotlashgan jamiyat"-bu axborotni yaratish, tarqatish va manipulyatsiya qilish eng muhim iqtisodiy va madaniy faoliyatga aylangan jamiyat. "Axborotlashgan jamiyat" iqtisodiy asosi asosan sanoat yoki agrar jamiyatlarga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. "Axborotlashgan jamiyat"ning dastgohlari stanoklar yoki pulluklar emas, balki kompyuterlar va telekommunikatsiyalardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Axborotlashgan jamiyat" atamasi garchi kompyuterlashtirish keng tarqalib, axborot va raqamli texnologiyalar faol rivojlana boshlagan paytda qo'llanila boshlangan bo'lsada, 1940-yillarda kibernetikaning paydo bo'lishi bilan "axborotlashgan jamiyat" tushunchasi paydo bo'lgan edi. Bu tushuncha amerikalik olimlar K.Shennon, N.Wiener, D. fon Neumann, ingliz mutafakkiri va kriptografi A.Tyuring, rus matematiki A.N.Kolmogorov kabi olimlarning nomlari bilan bog'liq. "Axborotlashgan jamiyat" atamasining yaponcha versiyasi 1961-yilda Kisho Kurokava va Tadao Umesao o'rtasidagi suhbatda paydo bo'lgan. Keyinchalik bu atama T.Umesao va F.Machlup asarlarida qo'llanilgan bo'lib, ular deyarli bir vaqtda - Yaponiya va AQShda paydo bo'lgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Axborot hamisha jamiyat hayotida ham, alohida shaxs hayotida ham muhim o'rin egallagan. Insoniyat tarixida axborotlarni yig'ish, saqlash va uzatish vositalarining rivojlanish jarayoni bir tekis kechmagan va bir necha bor axborot sohasida "Informatsion inqilob" deb ataluvchi global ahamiyat kasb etuvchi hodisalar yuz bergan.

Birinchi informatsion inqilob. Birinchi informatsion inqilob yozuvning kashf etilishi bilan bog'liq. Yozuv insoniyatga bilimlarni to'plash va uni avlodlarga uzatish imkonini berdi. O'z yozuviga ega bo'lgan sivilizatsiyalar boshqalariga nisbatan yuqori iqtisodiy va madaniy darajaga erishganligi ma'lum. Bunga misol qilib, Qadimgi Misr, Mesopatamiya, Xitoy kabilarni keltirish mumkin. Bu borada piktografik va ieroglifik yozuvdan alifboli yozuvga o'tish alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Ikkinchi informatsion inqilob. Ikkinchi informatsion inqilob XVI asr o'rtalarida kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan bog'liq. Bu hodisa axborotlarni saqlabgina qolmay, ularni ommaga yoyish imkoniyatini yaratdi. Savodxonlik alohida tabaqalar doirasidan chiqib, ommaviy tusga kirdi. Bular ilmiy texnika rivojlanish jarayonini tezlashtirdi. Kitoblar bilimlarning alohida mamlakat chegarasidan chiqib, umuminsoniy sivilizatsiya yaratilish jarayoniga turtki bo'ldi.

Uchinchi informatsion inqilob. Uchinchi informatsion inqilob XIX asr oxirida bo'lgan aloqa vositalarining taraqqiyoti bilan bog'liq. Telegraf, telefon va radio ma'lumotlarni turli masofalarga operativ uzatish va qabul qilish imkonini berdi. Insoniyat taraqqiyotining aynan shu bosqichi „globalashuv“ jarayonining debochasi bo'lib qoldi. Axborot uzatish vositalarining taraqqiyoti tezkor va ishonchli aloqa vositalariga muxtoj bo'lgan fan va texnikaning gurkirab rivojlanishiga olib keldi.

To'rtinchi informatsion inqilob. To'rtinchi informatsion inqilob XX asrning 70-yillarida mikroprotsessorli texnika va xususan, shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, axborot revolyutsiyasiga XX asr o'rtalarida kompyuterlarning paydo bo'lishi emas, mikroprotsessorli tizimlarning keng tarqalishi sabab bo'ldi. Ushbu jarayon axborotlarni saqlash va izlash tizimlarini radikal o'zgartirib, kompyuterli telekommunikatsiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi. Aynan to'rtinchi informatsion inqilob "Axborot jamiyati" rivogiga asos bo'ldi. Buning natijasida axborotning katta oqimlari vujudga keldi. XX asr o'rtalarida ushbu holatni "Informatsion portlash" deb ham atashdi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, 1900-yilgacha bilimlarning to'planishi va rivojlanishi juda sekinlik bilan borgan bo'lsa, 1900-yildan keyin har 50 yilda 2 baravarga, 1950-yildan keyin har 10 yilda 2 baravarga, 1970-yildan boshlab, har 5 yilda, XX asr oxiridan boshlab har yili 2 baravarga ortib bormoqda.

Bir qator siyosatshunoslar va siyosiy iqtisodchilar axborot jamiyati kontseptsiyasini postindustrializmdan ajratib turuvchi jihatlari mavjudligini ta'kidlaydi. Biroq, axborot jamiyati kontseptsiyasi postindustrial jamiyat nazariyasini almashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, uning tarafdorlari texnokratiya va an'anaviy futurologiyaning bir qator eng muhim qoidalarini takrorlaydi va yanada rivojlantiradi. Postindustrial jamiyat nazariyasini shakllantirgan D.Bell hozirda axborot jamiyati kontseptsiyasi tarafdorlari sifatida harakat qilmoqda. Bellning o'zi uchun axborot jamiyati kontseptsiyasi postindustrial jamiyat nazariyasi rivojlanishining o'ziga xos yangi bosqichiga aylandi. Bell ta'kidlaganidek, "kompyuter markaziy rol o'ynaydigan axborot va bilimlarni tashkil etish va qayta ishlash sohasidagi inqilob men postindustrial jamiyat deb atagan kontekstda rivojlanmoqda".

Jeyms Martinning fikricha esa, axborot jamiyati deganda birinchi navbatda G'arbda vujudga kelgan "rivojlangan postindustrial jamiyat" tushuniladi. Uning fikricha, axborot jamiyati birinchi navbatda 1960-1970-yillarda postindustrial jamiyat shakllangan mamlakatlarda — Yaponiya, AQSH va G'arbiy Yevropada tashkil etilgani bejiz emas. Jeyms Martin quyidagi mezonlar bo'yicha axborot jamiyatining asosiy xususiyatlarini aniqlash va shakllantirishga harakat qildi:

Texnologik mezon: ishlab chiqarishda, muassasalarda, ta'lim tizimida va kundalik hayotda keng qo'llaniladigan axborot texnologiyalari asosiy omil hisoblanadi.

Ijtimoiy mezon: axborot hayot sifatini o'zgartirish uchun muhim stimulyator vazifasini bajaradi, axborotdan keng foydalanish imkoniyati bilan "axborot ongini" shakllantiradi va tasdiqlaydi.

Iqtisodiy mezon: axborot resurs, xizmat, mahsulot, qo'shilgan qiymat manbai va bandlik sifatida iqtisodiyotning asosiy omili hisoblanadi.

Siyosiy mezon: aholining turli tabaqalari va ijtimoiy qatlamlari o'rtasida o'sib borayotgan ishtirok va konsensus bilan tavsiflangan siyosiy jarayonga olib keladigan axborot erkinligi.

Madaniy mezon: shaxs va umuman jamiyat taraqqiyoti manfaatlarini yo'lida axborot qadriyatlarini o'rnatishga ko'maklashish orqali axborotning madaniy qiymatini tan olish.

Shu bilan birga, Martin muloqot "axborot jamiyatining asosiy elementi" degan g'oyani ta'kidlaydi.

Yana bir britaniyalik sotsiolog Frenk Vebster ham axborot jamiyatini aniqlash uchun foydalanish mumkin bo'lgan beshta asosiy ma'lumot turini qayd etadi: texnologik, iqtisodiy, kasbiy, fazoviy va madaniy. Vebsterning so'zlariga ko'ra, ma'lumotlarning xarakteri bizning bugungi hayot tarzimizni o'zgartirdi. Biz o'zimizni qanday tutishimiz nazariy bilim va ma'lumotlarga asoslanadi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya, internet-texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha sohalariga keng miqyosda joriy etilishi yoshlarni axborot sohasidagi xavf-xatarlardan himoya qilish, chetdan kirib kelayotgan mafkuraviy xurujlardan, ularning ongini buzg'unchilik ta'sirlaridan saqlash masalalarining dolzarbligini kuchaytirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlari foydalanuvchilari, video va kinomahsulot iste'molchilari ularning jismoniy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarga duch kelayotgan holatlari uchramoqda.

Bu borada rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi alohida e'tiborga molik, ularda mazkur masalalar quyidagi vazifalar orqali hal etiladi:

- yoshlar va bolalarni axborot makonida himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikni rivojlantirish;

- media-savodxonlik, tarmoqda muloqot qilish odobini yuksaltirish;

- Internetda xavfsiz ishlashni qo'llab-quvvatlashning texnik mexanizmlarini yaratish;

- mazkur masalalarni hal etishda davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV keng ishtiroki va o'zaro hamkorligini ta'minlash va boshqalar.

Yoshlarda internetdan oqilona foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, global tarmoqda milliy axborot resurslarni ko'paytirish, yosh veb-ixtirochilarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, bu borada saytlar tomonidan turli tanlov, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, yoshlarni rag'batlantirish kabilar mazkur muammoning samarali yechimi bo'la oladi.

XULOSA

Darhaqiqat, axborot makonida tahdidlar bor ekan, Milliy axborot makonimizga chegara qo'yib bo'lmaydi. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Ayni paytda, mediata'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasi o'quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasining yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'la oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "The Net Result - Report of the National Working Party for Social Inclusion." the IBM Community Development Foundation report, 1997.

2. Daphne R. Raban, Avishag Gordon, Dorit Geifman. THE INFORMATION SOCIETY. Article in Information Communication and Society. -April, 2011.

3. Information Society – what is it exactly? (The meaning, history and conceptual framework of an expression). László Z. Karvalics. Budapest, March-May 2007. page 5.

4. Абдеев Р.Ф. "Философия информационной цивилизации" УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ ДИАЛЕКТИКА ПРОГРЕССИВНОЙ ЛИНИИ РАЗВИТИЯ КАК ГУМАННАЯ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ ФИЛОСОФИЯ ДЛЯ XXI ВЕКА. - Москва, 1994.

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_jamiyati

6. <http://www.ziyonet.uz/>